



BUXORO JADIDLARI FALSAFASINING AYRIM MASALALARI

Sobirov Umid Baxtiyorovich,

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi.

prezidentus@mail.ru

Rizayev Nodir Sobirovich,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

nodirbuxoriy9@mail.ru

***Annotatsiya.** Jadidlar harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi murakkab siyosiy jarayonlarda Turkiston jamiyatining eng ilg'or yo'nalishi qarashlarini o'zida aks ettirdi. U o'zining g'arb falsafasiga xos bo'lgan gumanizm g'oyalari hamda sharq falsafasiga oid insonparvarlik va komillik kabi g'oyalari muhim ahamiyat kasb etdi. Buxoro jadidchilik maktabi vakillari ham ayni jarayonda o'z qarashlari bilan alohida tadqiqot mavzusi sifatida maydonga kirib kelishgan edi. Mavjud tuzum ma'rifatparvarlar qarashlariga mos bo'lmasada jamiyatni isloh qilish uchun muhim qadam hisoblangan. Ushbu maqolada aynan ushbu maktab vakillari falsafiy qarashlarining ayrim jihatlari ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Buxoro jadidlari, insonparvarlik, gumanizm, fatalizm, komillik, g'arb falsafasi, sharq falsafasi*

SOME ISSUES OF THE PHILOSOPHY OF BUKHARA JADIDS

***Abstract.** The Jadids movement reflected the views of the most advanced direction of Turkestan society in the complex political processes of the late 19th - early 20th centuries. Their ideas of humanism characteristic of western philosophy and ideas of humanity and perfection related to eastern philosophy gained importance. The representatives of the Bukhara school of Jadidism also entered the*



arena with their views as a separate research topic in the same process. Although the existing system did not correspond to the views of the enlightened people, it was considered an important step for the reform of society. This article reveals some aspects of the philosophical views of the representatives of this school.

Key words: *Bukhara jadids, humanitarianism, fatalism, perfection, western philosophy, eastern philosophy*

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ФИЛОСОФИИ БУХАРСКИХ ДЖАДИДОВ

Аннотация. *Движение Джадидов отразило взгляды наиболее прогрессивного направления туркестанского общества в сложных политических процессах конца 19 — начала 20 вв. Многие из его идей, характерных для западной философии и идей восточной философии, такие как человечность и совершенство, приобрели значение. Представители бухарской школы джадидизма также вышли на арену со своими взглядами как отдельная тема исследования в этом же процессе. Хотя существовавшая система не соответствовала взглядам просвещенных людей, она считалась важным шагом на пути реформирования общества. В данной статье раскрываются некоторые аспекты философских взглядов представителей этой школы.*

Ключевые слова: *Бухарский джадидизм, гуманизм, фатализм, совершенство, западная философия, восточная философия*

Kirish. *Ma'lumki, ma'naviy hayot sohalari va ularda ro'yu beradigan voqea-hodisalarning bir-biri bilan uzviy bog'liq holda va o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lishi ushbu sohaning muhim qonunlaridan biridir. Bu jihatdan, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida jadid bobolarimiz merosiga nisbatan*



munosabatning yangi bosqichga ko'tarilayotganini ma'naviy hayotimizda ro'y berayotgan yangilanishlar jarayonidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi.

Aksincha, keyingi yillarda ma'naviyat sohasi muhim yo'nalishga aylangani, bu borada yangi faoliyat tizimi shakllangani ana shu jarayonning tobora kengayib va mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Jadidchilik o'z faoliyati davomida murakkab bir davr ya'ni - ma'rifatparvarlikdan siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Mavjud hokimiyatning mustabid siyosati, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlardan orqada qolishi, konservativ guruhning tayziqi shuningdek o'lka aholisining taffakkur taraqqiyotidagi qoloqliklar nafaqat Buxoro hududida balki Turkistonni bu tushkun holatdan olib chiqishning amaliy vositalarini izlab topishga undadi.

Buxoro jadidchilik maktabi vakillarining falsafiy qarashlarining o'ziga xos xususiyati nimada? Bu birinchi navbatda, jadidlarning nafaqat Sharq, balki G'arb madaniyatini ham egallash asosida shakllangan yuksak aqliy-ma'naviy zakovatida namoyon bo'ladi. Ma'rifatparvarlar o'rta asr Sharq mutafakkirlari Forobiy, Fuzuliy, Navoiy falsafiy qarashlarining ta'siri ostida tarbiyalanib, o'z bilim ko'nikmalarini ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlari bilan boyitdilar. Bu jadidlar falsafiy dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatini belgilab berdi.

Shuningdek ma'rifatparvarlar falsafasida asrlar davomida shakllangan va qadrlangan qadriyatlar, o'lka aholisining ma'naviy qiyofasi, tafakkuri va turmush tarzi, urf odatlari, bag'rikenglik tamoyillari, barqarorlik va bunyodkorlikka intilishni ifodalaydigan falsafiy tamoyillar, tushuncha va kategoriyalar tizimini o'z ichiga olgan edi. Bu esa o'z navbatida hozirgi kunda belgilab olingan strategiyamizning asosiy g'oyalariga hamohangdir hamda bu merosni o'rganish Yangi O'zbekiston uchun muhimdir [1]



Ushbu maqolada aynan Buxoro jadidchilik maktabi vakillarining falsafiy qarashlari va ular faoliyatidagi ko'zga tashlangan ayrim falsafiy tamoyillar haqida e'tibor qaratilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Buxoro jadidlari va umuman jadidshunoslik borasidagi adabiyotlarni tahlil qilganimizda sovet davri, mustaqillik davrlarida yaratilayotgan hamda xorijiy adabiyotlarni ko'rishimiz mumkin. Buxoro jadidchilik maktabi vakillarining ijtimoiy, ma'rifiy, axloqiy – estetik jihatlarini I.Mo'minov, Z.R.Qodirova, Sh.O.Madayeva, G.Mahmudova, Q.Nazarov, D.Amriddinova, G.N.Navro'zova, B.Ergashev, S.Abduvohidov, kabi faylasuf olimlar o'rganilgan. Shuningdek B.Qosimov o'z asarlarida jadidchilik harakati nomoyondalari faoliyati va qarashlari haqida to'xtalib o'tgan bo'lsa, D. Alimova asarlarida Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, taraqqiyparvarlarning davlatchilik, musulmon madaniyatini isloh qilish borasidagi qarashlariga oid muhim ma'lumotlar beriladi. Q. Rajabov Buxorodagi jadidchilik harakatining umumiy hamda o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahlil qilgan. S. Inoyatov o'z tadqiqotlarida buxoro jadidlari faoliyati bilan birgalikda ularning avlodlari va shajarasi haqida ma'lumotlar bergan. Q.Nazarov oxirgi yillarda jadidlar falsafasi, ularning g'oyaviy asoslari haqidagi tadqiqotlarini alohida qayd etish mumkin. Jadidshunos olim B.Ergashev o'z tadqiqotlarida Buxoro jadidlarining ijtimoiy – siyosiy faoliyatlariga alohida urg'u berib o'tgan. Hozirgi kunda kelib aynan buxoro jadidlari faoliyatining tarixi hamda falsafiy qarashlarini talqin qilish bo'yicha D.Jamolova, F.Temirov, Z.Abdurashidov, A.Salohov kabi olimlarning faoliyatlarini ko'rib o'tishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Buxoro jadidlarining falsafiy qarashlari muhokama qilinadi. Jadidlar harakati g'oyalari tahlil qilindi va hozirgi kun dolzarb masalalari bilan solishtirildi. Jadidlar tomonidan jamiyatni isloh qilish borasidagi yondashuvlari o'rganildi.



Tahlillar va natijalar. Buxoro va umuman Turkiston jadidchiligining falsafiy qarashlarini o'rganish jarayonida faylasuf olim Q.Nazarov ta'kidlaganidek ular ijodida bevosita ontologiya yoki yoki gnoseologiyaning umumnazariy masalalari kamroq uchrasada, o'sha davr hayoti millat va millat taqdiri bilan bog'liq ko'plab falsafiy muammolar jadidlarning diqqat markazida turgan, bu borada qimmatli fikrlarni bayon qilishganligini qayd qilish zarur.[2]

Buxoroda islohotchilik va ma'rifatparvarlik yangi falsafasining shakllanishida *Ahmad Donish*(1827-1897) (To'liq ismi - Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Hanafiy as-Siddiqiy al-Buxoriy) alohida o'rin tutadi. Ahmad Donishning nafaqat davlatchilik tarixi haqidagi bilimlar va masalaning falsafiy jihatlari, balki amaliy tajribaga ham asoslangan davlatning qanday bo'lishi to'g'risidagi falsafiy xulosalari jamiyatga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bir muddat u amirlik saroyida ishlab keyinchalik boshqaruvdagi turli kamchiliklar va nuqsonlarni ko'rib erkin ijod bilan shug'ullanishni afzal ko'radi. O'sha vaqtda Buxoroga qaraganda rivojlangan mamlakatga qilingan safarlar uning hukmron doiralarga bo'lgan munosabatini yanada keskinlashtirdi - chunki u boshqaruv shakllarining eskirganligi va qoloqligi sabablarini anglab etdi. Donishning umumiy tenglik to'g'risidagi «Franklar nazariyasi» bilan tanishligini taxmin qilish mumkin. 1869 yili Peterburgda bo'lganida u rus olimlari, jumladan, N.G. Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubov va Rossiyaning demokratik kayfiyatdagi boshqa ziyolilari bilan aloqada bo'lgan mashhur sayyoh P.I.Pashino bilan uchrashadi. Ehtimol, bu nazariya bilan u ana shu uchrashuvda tanishgandir.[3]

Donishning siyosiy, ijtimoiy va falsafiy qarashlari uning «Navodir ul-vaqoe» («Nodir voqealar») kitobida o'zining nisbatan to'liq ifodasini topgan. Risolada u falsafa, axloq, ijtimoiy hayotning turli masalalari, davlat qurilishi va odamlarning o'zaro munosabatlari to'g'risida mulohaza yuritadi, mavjud idora usulini tanqid qilib, Buxoro amirligining davlat boshqaruvini isloh qilishni taklif etadi.



«Ular, - deb yozadi u Buxoro amirlari haqida, - nimaiki topmasinlar, o'zlariga olishadi - bevalar chirog'idagi alangadan tortib vaqf omborlaridagi nongacha o'g'irladilar va bularning barchasi o'z qursoqlari va aysh-ishratlari uchun... jabr-zulm, xo'rlik, aminona, vakilona singari turli soliqlarning ko'pligidan dehqon va hunarmandlarning na sabr qilishga ham, na kurashishga imkoniyati qolgan edi»[4] Ahmad Donish ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi islohotlar tarafdorigina emas edi. Amaldorlarning shaxsiy manfaati yo'lida o'z mansabini suiiste'mol qilishi, hukmdorlarning ochko'zligi va shariat qonunlarini o'z foydasiga xizmat qildirishi, sxolastikaga asoslangan ta'limning ahvoli, davlat mustaqilligini saqlashga yo'naltirilgan tashqi siyosat tizimining mavjud emasligi, umumiy dushmanga qarshi kuchlarni birlashtirish o'rniga, mintaqadagi yangi yerlarni bosib olishga qaratilgan biryoqlama siyosatni tanqid qilardi. Aynano'sha davr Misr islohotchilari kabi Ahmad Donish fatalizmga qarshi chiqdi. U inson hamma narsa faqat yaratgandan deb o'tirmay, o'z ahvolini yaxshilash uchun faol harakat qilishi kerakligi g'oyasini ilgari surib, har bir kishi o'z taqdirini o'zi hal qilish mumkinligini va Alloh tomonidan bunga katta imkoniyat berilishini uqtirdi. Uning fikricha, davlat bir to'da kishilarning emas, balki xalqning manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak, davlat rahbarlari esa, mamlakat va jamiyat farovonligi to'g'risida qayg'urishi lozim. Ahmad Donishning jamiyat tafakkurining rivojlanishi hamda inson kamoloti haqidagi qarashlari ham jadidchilik ta'limotining asosiga aylandi.

Buxoro jadidchilik makatabining yorqin namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat (1886-1937) edi. Fitrat falsafasining o'ziga xos jihati sifatida ilmlar tasnifini aynan sharq mutafakkirlari an'anasi asosida ishlab chiqqanligini qayd qilish mumkin. Fitrat barcha ilmlarni nazariy va tajribaga asoslangan ilmlarga bo'ladi hamda diniy va dunyoviy fanlarni u alohida tasnif qiladi. Diniy ilmlarga u Muhammad (s.a.v) hadislarini, hadislar talqini, fiqh va ilohiyotni kiritadi. Dunyoviy fanlarga esa falsafa, fizika, mexanika, algebra, optika, musiqa, astronomiya,



geometriya, tibbiyot, geografiya, tarix va tilshunoslikni qo'shadi. Falsafa fanining predmeti haqida fikr yuritir ekan, Fitrat ong, axloq, ilohiyot va tafakkurni bilishni uning asosiy vazifasi sifatida qayd etadi.

Fitratning "Najot yo'li" va "Hind sayyohi qissasi" asarlarida aynan murosa masalasi haqida to'xtalib o'tilgan. Bu asarlarda umumiy har bir fuqaro millati, dini va qadriyatlar xilma xilligini hurmat qilishini ta'kidlaydi. Dinni talqin qilishda Fitrat diniy murosasizlikka qarshi chiqib, bag'rikenglik va insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashadi. "Najot yo'li" da u shunday yozadi: «hech shak-shubha yo'qki, garchi kishilar turli dinlarga e'tiqod qilib, turli mamlakatlarda yashasalar-da, turli qabila va millatlarga mansub bo'lsalar-da, ularning barchasi yagona otaning farzandlari hisoblanadilar va yagona insoniyatga taalluqlidirlar. Boshqacha aytganda, ular - og'a-ini. Shunday ekan, ular bir-birlarini sevishlari va umumiy birodarlik ittifoqini tuzishlari kerak. Dunyoviy hayot muvaffaqiyati umumiy birodarliksiz mumkin emas»[5].

Fitrat shuningdek axloqshunoslik va komil inson tarbiyasi kabi falsafiy arashlarga alohida urg'u bergan. Jumladan uning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida oiladagi o'zaro munosabat hamda farzand tarbiyasi haqida to'xtalar ekan unda har jihatdan sog'lom bo'lgan oila yetishtirgan farzandlargina millatni yuksaklikka ko'tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi.[6] Ushbu asarning ikkinchi qismida farzand tarbiyasiga to'xtalar ekan Fitrat tarbiyani an'anaviy yo'nalishda talqin etadi. U farzand kamoloti aqliy va axloqiy hamda jismoniy tarbiya orqali erilishini ta'kidlaydi. Fitrat bu asari orqali ma'lum ma'noda tarbiya nazariyasini ilgari suradi. Bunda u farzand tarbiyasida iroda va ixtiyor masalasini o'rataga tashlaydi ya'ni Farzandni irodali qilib tarbiyalash zarur ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek Fitrat o'zining "Hind sayyohi qissasi" asarini tadqiq qilish jarayonida ijtimoiy – siyosiy sohalardagi bir necha falsafiy qarashlarini ko'rib otishimiz mumkin. Jamiyat rivojlanishida mavjud hukmron ayyonlarning dogmatik



qarashlari, zarur zamonaviy bilimlarni egallashda qoloqlik, dinni noto'g'ri talqin qilish shuningdek murosa masalarini o'rtaga tashlaydi. Fitrat hind sayyohi orqali o'z tilidan ham moddiy, ham ma'naviy qashshoqlashib qolgan jamiyat holidan xabar berar ekan, ushbu xulosani asar qahramoni tilidan so'zlaydi: «Ilohiy qonun budir: modomiki biron bir qavm o'zining ishlarini Olloh farmoyishi asosida olib bormas ekan, o'zining shaxsiy hayotini sharaf, saodat va farog'at, buyuklik bilan hamqadam bilib o'tkazmas ekan, tinchlik va osoyishtalik niyatlarini yo'qqa chiqarishga intilib, kibr va g'urur vodiysiga qadam qo'yar ekan, chin haq va adolat yo'lidan chiqar ekan, o'sha zahotiy oq shon-sharaflari yer bilan yakson bo'lib, osoyishtaliklari zahmatga, buyukliklari esa xorlikka aylanishi muqarrardir!...»[7]

Umuman Fitrat falsafiy qarashlari zamonaviy bilimlarga xos bo'lib ma'naviyat va axloq masalari diqqat markazida turgan. Bu borada dunyo tajribasiga xos bo'lgan tamoyillarni ham o'z qarashlarida singdirilib borilgan.

Buxorolik shifokor va shoir Mirzo Sirojiddin murakkab siyosiy jarayonlarda ta'lim tizimini isloh qilish, xalq ma'naviyatini oshirish yo'lida xizmat qilgan ma'rifatparvarlardan biri edi. Uning 1914 yil Oyina jurnalida chop etilgan "Aql" maqolasida o'z falsafiy qarashlarini bayon etadi. Mirzo Sirojiddin bunda aqlning lug'aviy ma'nosi va falsafiy kategoriyasiga alohida ahamiyat beradi va aqlni inson kamolotining muhim aspekti, odamni hayvondan farqlantiruvchi jihat sifatida ta'riflaydi. Insonning aql-zakovati, idroki tushunchalarini falsafiy talqin etish bilan birga, his – tuyg'u masalasini ham talqin qiladi. Muallif shu o'rinda insonni ikki toifa — noqis va komil shaxslarga ajratadi. Noqis aql insonga tug'ilishi bilan ato etilsa, komil aqlga ko'p kitob o'qish, tinglash, ilm olish va hayotiy tajriba asosida erishish mumkin. SHu bilan birga, insonda tarbiya vositasida xulqiy aql, mehnat qilish yordamida kasbiy aql shakllanishi yuzasidan ham fikr yuritadi. Har bir inson o'z yurish-turishi, muomalasi, zehni bilan ajralib turadi. Aqlli odam nodondan farqli ravishda hayotda o'z fikri, tanlovi va maqsadiga ega bo'ladi. Maqola muallifi beshikdan to qabrgacha ilm olish mazmunidagi hadisi sharifni asosiy g'oya sifatida



olib, har bir shaxs ilm olish, o‘z ustida muntazam ishlash, mehnat qilish, kasb egallash orqali komil inson bo‘lib etishishi mumkinligini yoqlaydi.[7]

Shuningdek Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadridin Ayniy, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmon Xo‘ja), Otaulla Xo‘jayev, Akmaljon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo‘ja Mehriy, Musa Saidjonov kabi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta‘lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qo‘yish singari maqsadlari lgari surildi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra ular, ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-harajatlarga olib keluvchi an‘anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan.

Oxirgi yillarda jadidchilik ilmiy merosini o‘rganish turli mavzularda ularning faoliyatini tadqiq qilish ancha kengaydi lekin shunday bo‘lsada jadidlar faoliyatiga oid bilimlar ancha keng va bu omil bu sohani chuqur o‘rganishni talab etadi. Ayniqsa Buxoro jadidchilik maktabi vakillarining falsafiy qarashlarini o‘rganishda faqatgina Fitrat faoliyati emas balki boshqa ma‘rifatparvarlarni ham tadqiq qilish zarurdir. Bu borada Buxoro shahridagi “Hovli poyon” uyida O‘zbekiston madaniyati va san‘atini rivojlantirish jamg‘armasi ishtirokida jadidchilik tarixiga bag‘ishlangan ilk muzey tashkil etilishi kelajakda o‘z mevasini berishi tabiiy. Muzeyda jadidchilik namoyandalarining qo‘lyozmalari va shaxsiy buyumlaridan iborat yangi ekspozitsiya hamda jadidchilik tarixini ochib beruvchi maxsus yaratilgan multimediya tizimi o‘rin oladi. Muzey qoshida jadidlar merosini o‘rganish bo‘yicha ilmiy markaz tashkil etish ham rejalashtirilgan. Olimlar ilmiy faoliyat uchun barcha sharoitlarni ta‘minlovchi materiallar va arxivlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Muzeyni tashkil etish tashabbuskorlaridan biri — Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning o‘g‘li Timurxo‘ja bo‘lajak muzey fondiga qadimiy qimmatli qo‘lyozmalarni o‘z ichiga olgan boy kutubxonasini hamda zamonaviy adabiyotlarning keng to‘plamini sovg‘a qiladi



Xulosa va takliflar. Jadid g'oyasining negizi inqilob bilan emas, balki istiloh va islohot yo'lidan borib, ilm-ma'rifatni, iloji boricha keng ko'lamda yuksaltirish orqali taraqqiyotga erishishdan iborat edi. Shunday qilib Buxoro jadidchilik maktabi qarashlari yaxlit tizim sifatida xalqimiz hayotida mavjud bo'lgan meyorlar va mezonlar tushunchalar asosida shakllangan. Binobarin, hozirgi kundagi islohotlarimizning tub mohiyatlarida o'z aksini bermoqda. Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan hozirgi davrda, milliy taraqqiyot uchun kurashgan, mustaqilligimizning g'oyaviy va amaliy manbalarini yaratishda muhim bosqich bo'lgan jadidchilikning ijtimoiy – siyosiy va falsafiy qarashlarini xolisona tahlil qilish, o'rganish va hozirgi davr taraqqiyot bosqichida ahamiyatini ko'rsatish muhim vazifalirimizdan biridir.

Adabiyotlar:

- 1.1. Prezidentning “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigidan. Toshkent 11.12.2023
2. Q. Nazarov. Jadidlar falsafasi. Yangi O'zbekiston gazetasi. № 11 (1072), 2024 yil
3. Историография общественных наук в Узбекистане. Библиографические очерки. Составитель Б.В. Лунин. Ташкент, 1974. 165-б
4. Ахмад Дониш. «Наводир ул вакое» ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалари фонди. Инв. № 1387.
5. Фитрат А. Нажот йўли (Рахбари нажот). Тошкент, 2001. 159-б.
6. Фитрат А. Оила. Т., Маънавият, 1998, 60-б.
7. Abdurauf Fitrat .Hind sayyohining qissasi. “Sharq yulduzi” 1991, №8.15 bet.
8. <https://yuz.uz/news/mirzo-sirojiddin--yosh-marifatparvar>